ZANGIOTA TUMANINING 2021–2023 YILLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH HOLATI

Siddikov Alisher Ismoilovich
Tadqiqotchi, Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. *Maqolada Zangiota tumanining 2021–2023 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Tahlil sanoat, qishloq xo‘jaligi, investitsiya, qurilish, tashqi savdo, xizmatlar va bandlik sohalarini o‘z ichiga oladi. Hududda kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli kuchaygani, eksport-import muvozanati, aholi bandligi va investitsion muhit xususida xulosa chiqarilgan.*

Kalit so‘zlar*: Zangiota tumani, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, sanoat, qishloq xo‘jaligi, investitsiyalar, qurilish, tashqi savdo, xizmatlar sohasi.*

Аннотация. *В статье проведён анализ социально-экономического развития Зангиатинского района за 2021–2023 годы на основе статистических данных. Анализ охватывает такие сферы, как промышленность, сельское хозяйство, инвестиции, строительство, внешняя торговля, сфера услуг и занятость населения. Сделаны выводы о возросшей роли малого бизнеса в экономике региона, состоянии внешнеторгового баланса, занятости населения и инвестиционного климата.*

Ключевые слова: *Зангиатинский район, экономические показатели, промышленность, сельское хозяйство, инвестиции, строительство, внешняя торговля, сфера услуг.*

Abstract. *This article analyzes the socio-economic development of the Zangiota district during the years 2021–2023 based on statistical data. The analysis includes sectors such as industry, agriculture, investment, construction, foreign trade, services, and employment. The study concludes that the role of small businesses in the regional economy has increased, while also highlighting the trade balance, employment trends, and the investment environment.*

Keywords: *Zangiota district, economic indicators, industry, agriculture, investment, construction, foreign trade, service sector.*

Zangiota tumani Toshkent viloyatining muhim iqtisodiy-hududiy birligidir. 2024-yil 1-yanvar holatiga aholisi 171,2 ming kishini tashkil etib, viloyat aholisi umumiy sonining 5,6 foizini tashkil etadi. Tumanning maydoni 186,8 kv.km bo‘lib, aholi zichligi 1 kv.km.ga 916,6 kishiga teng. Maqolaning maqsadi – tuman iqtisodiyotining so‘nggi yillardagi holatini chuqur tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish.

2023-yilda Zangiota tumanida 3 952,9 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, fizik hajm indeksi 102,2% ni tashkil etdi. Kichik biznes ulushi sanoatda 94,8% ni tashkil qilib, tarmoqda asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga aylangan. Yirik korxonalar soni kamaygan

bo‘lsa-da, kichik va mikrofirmalar sonining ortishi sanoat tarmog‘ida diversifikatsiyani kuchaytirmoqda.



2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 2 775,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Asosiy mahsulotlar dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi. Sabzavot, poliz, kartoshka, meva va uzum yetishtirishda dehqon xo‘jaliklari yetakchilik qiladi. Chorvachilik mahsulotlarining 57,9 foizi umumiy ishlab chiqarish hajmida ustunlik qiladi.

Investitsiyalar hajmi 2023-yilda 1 972,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 87% ga teng. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiya miqdori 11,6 mln so‘mni tashkil etdi. Mulkchilik shakliga ko‘ra, 84,8% investitsiyalar nodavlat subyektlariga tegishli. Qurilish ishlari hajmi 1 110,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, ulkan o‘sish kuzatildi.

Tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 584,3 mln AQSH dollarini tashkil etib, eksport 60,9 mln, import esa 523,4 mln dollar bo‘ldi. Savdo saldosi salbiy (-462,4 mln dollar). Eksportni kengaytirish uchun ishlab chiqarish tarmog‘ini texnologik modernizatsiya qilish lozim.

2023-yilda xizmatlar sohasi hajmi 3 334,1 mlrd. so‘mga yetdi. Bandlikni ta’minlashda kichik biznes muhim rol o‘ynadi. Aholi bandligini oshirish, ayniqsa yoshlar bandligi va ayollarni ish bilan ta’minlash masalasi dolzaribdir.



Zangiota tumani 2021–2023 yillarda iqtisodiy barqarorlik va o‘sishga erishdi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiya kuchaydi, investitsiya va qurilish ishlari hajmi kengaydi. Tashqi savdoda salbiy saldo mavjud bo‘lsa-da, eksport salohiyati mavjud. Kelgusida texnologik yangilanish, infratuzilma rivoji va ijtimoiy sohalarga investitsiya kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zangiota tumani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to‘g‘risidagi statistik axborotnoma. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi, 2024.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hisobotlari, 2021–2023.

3. Hududiy iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.

4. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi byulletenlari, 2021–2023.